

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
X.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalalidina	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixologiyistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



UO'K: 81'25

BADIIY MATNDA REALIYALARNI TARJIMA QILISH XUSUSIDA
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА РЕАЛИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ
PROBLEMS OF TRANSLATING REALIA FROM UZBEK INTO ENGLISH

Ochilova Nafisa Usmanovna

Navoiy davlat pedagogika instituti, Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada milliy madaniyatga xos so'zlar tarjimasi va ularni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning sermahsul vositalari xususida so'z yuritiladi. Maqolada tarjimada muqobiliga ega bo'lmagan so'zlar, realiyalar tasniflanishiga ko'ra turlari, ularni tarjima qilishning taklif etilgan usullari borasida so'z yuritiladi. Keltirilgan fikr-mulohazalarni isbotlash uchun jahon tarjimashunos olimlari va tadqiqotchilari ilmiy ishlaridan iqtiboslar keltiriladi. Maqolada yoritilgan tadqiqot maqsadi o'zbek tili madaniyatiga xos so'z va iboralarni ingliz tiliga tarjima qilish vositalarini o'rganish va tahlil qilish, hamda ishonchli tarjimani amalga oshirishda eng maqbul tarjima usullarini aniqlashdan iborat. Maqolada yoritilgan tadqiqot ishini olib borishda dalillarni to'plash, qiyoslash, chog'ishtirish va xulosalash metodlaridan foydalanilgan. Xulosa sifatida o'zbek tilida mavjud realiyalarni tarjima qilishning umumiy qoidalarini yaratish imkonsiz bo'lganligi tufayli alohida holatlarda tarjima namunalari qiyosiy tahlili asosida eng muvaffaqiyatli va maqbul usullarini qo'llash g'oyasi ilgari suriladi.

Аннотация

В данной научной статье речь пойдет о переводе слов, характерных для национальной культуры, и продуктивных средствах их перевода с узбекского на английский язык. В статье речь пойдет о словах, не имеющих альтернативы в переводе, о видах согласно классификации реалий, о предложенных способах их переживания. В доказательство изложенных мнений приводятся цитаты из научных трудов мировых ученых-переводчиков и исследователей. Целью исследования, освещенного в статье, является изучение и анализ средств перевода слов и выражений на английский язык, характерных для культуры узбекского языка, а также определение наиболее подходящих методов перевода для обеспечения надежного перевода. В моей исследовательской работе, описанной в статье, использовались методы сбора, сопоставления, сопоставления и обобщения доказательств. В заключение, в связи с невозможностью создания общих правил перевода существующих реалий на узбекский язык, в отдельных случаях выдвигается идея применения наиболее удачных и оптимальных методов на основе сравнительного анализа образцов перевода.

Abstract

This scientific article will focus on the translation of words characteristic of national culture and productive means of their translation from Uzbek into English. The article will focus on words that have no alternative in translation, on the types according to the classification of realities, on the proposed ways of experiencing them. To prove the stated opinions, quotations from the scientific works of world scientists, translators and researchers are given. The purpose of the research covered in the article is to study and analyze the means of translating words and expressions into English, characteristic of the culture of the Uzbek language, as well as to determine the most appropriate translation methods to ensure reliable translation. In my research work described in the article, methods of collecting, collating and summarizing evidence were used. In conclusion, due to the impossibility of creating general rules for translating existing realities into Uzbek, in some cases the idea of using the most successful and optimal methods based on a comparative analysis of translation samples is put forward.

Kalit so'zlar: madaniyat elementlari, realiya, asl nusxa tili, tarjima tili, tarjima usullari, adaptatsiya, kompensatsiya, reduksiya, ekvivalentlik strategiyasi, modulyatsiya, umumiyashtirish, so'zma-so'z yoki lug'aviy tarjima.

Ключевые слова: культурные элементы, реалия, исходный язык, язык перевода, методы перевода, адаптация, компенсация, редукция, эквивалентность, модуляция, генерализация, дословный или буквальный перевод.

Key words: culture-bound words, realia, source language, target language, translation strategies, adaptation, compensation, reduction, equivalence, modulation, generalization, word-for-word or literal translation.

KIRISH

Madaniyatlar xilma-xilligi mavjud ekan, bir tildan boshqa tilga tarjimoni amalga oshirishda to'liq va aynan monand tarjima matnini yaratishning imkoni yo'q. Til madaniyat va til egalarining o'ziga xoslik ifodasi bo'lib, bu o'z navbatida tarjimada madaniyatga xos so'zlarni tarjima qilishda, ayniqsa ikkinchi tilda ekvivalentiga ega bo'lmagan tushunchalarni o'g'irishda muammolar keltirib chiqaradi.[3, 28]. Badiiy matnda uchragan madaniyat elementlarini tarjima qilish tarjimashunoslikda alohida ahamiyat kasb etuvchi tarjima amaliyoti hisoblanadi. Madaniyat belgisini bildiruvchi so'zlar va iboralardan tashkil topgan realiyalar tarjimonlarni ko'p bora qiyin vaziyatga solgani tufayli tilshunoslik sohasida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarning diqqatini jalb etib kelmoqda.

Mazkur maqolani yozishdan maqsad, o'zbek tili madaniyatiga xos so'z va iboralarni ingliz tiliga tarjima qilish vositalarini o'rganish va tahlil qilish, hamda ishonchli tarjimoni amalga oshirishda eng maqbul tarjima usullarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'z izlanishlarida, Pederson asl nusxa matnida boshqa so'zlarga nisbatan tarjima qilinishi qiyinroq bo'lgan so'zlar har doim uchrashini, bunday so'zlar tarjimondan alohida e'tibor talab qilishini ta'kidlab o'tadi. Pederson bunday so'zlarni ifodalashda "tarjimaning krizis nuqtasi" yoki "tarjima muammolari" terminlaridan foydalanadi va "krizis nuqtalar"ga ism va nomlar, qo'shiq va so'z o'yinlari, qochiriqlarni misol sifatida keltiradi[9; 93-95].

Ketford esa tarjima qilishni qiyinlashtiruvchi sabablarni ikki guruhga ajratadi, ya'ni buning 1) lingvistik; 2) ekstralingvistik sabablarini ko'rsatadi[1; 94-99]. Uning fikriga ko'ra, lingvistik muammo asl nusxa tilida mavjud bo'lgan tushuncha tarjima tilida mavjud, ammo bir so'z bilan ifodalanmaganda yuzaga keladigan holat deb baholaydi. Masalan, ingliz tilida "fresh" (rus. "свежий") so'zining tushunchasi o'zbek tilida mavjud, ammo uni ifodalanishi kontekst va vaziyatga farqlanishi va aynan bir xil so'z bilan ifodalanmasligi lingvistik muammo hodisasini izohlaydi. Shuningdek ingliz tilida "parents", "grandparents", "siblings", "cousins" kabi tushunchalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda, bir necha so'z variatsiyalari yordamida amalga oshirish lozim bo'ladi.

Ekstralingvistik muammolarni hosil qiluvchi madaniyatga oid so'z va iboralarni ifodalash uchun dunyo olimlari turlicha terminlarni taklif qilishadi. Masalan, Verner ularni "kulturema"lar deb atasa [10;42], Berkov "ekzotizm"[13;79], "aliyenizm" terminlaridan foydalanadi. Malblank "lakuna"lar [5;17], Finkel "lokalizm" terminlarini taklif qiladi. "Realiya" termini rus olimi A.Fyodorov tomonidan taklif qilingan bo'lib, S.I.Vlaxov va S.P.Florinlar uni madaniyatga xos so'zlarni ifodalashda qo'llashgan. [14;18] Keyinchalik, termin ma'lum tilning shakllanishida o'z ta'siriga ega bo'lgan an'analar, odatlar va boshqa madaniy, moddiy aspektlarni ham bildira boshlagan. Madaniyatning xilma-xilligi tufayli tarjimada yuzaga kelayotgan muammo esa, ekstralingvistik sababni hosil qiladi. Masalan, o'zbek madaniyatiga tegishli bo'lgan "shirchoy", "qatiqli osh", "atala" kabi oziq-ovqat turlarini ingliz tilida ekvivalenti mavjud emas, chunki bu ovqat turlari tarkibi va tayyorlanish tartibi ingliz ovqat turlarida o'xshamasligini bilamiz.

Shu kunga qadar olib borilgan izlanishlarda, realiyalarni tasniflashda bir nechta yondashuvga tayaniladi. Masalan, Olga Denti realiyalarni uch turga ajratadi[2;113-115], Piter Nyumark esa g'ayrimadaniy so'z va tushunchalarni besh guruhga turkumlaydi[5;48]. Yana bir qator olimlar keltirgan tasniflarda esa ularning turlari ro'yxati ko'payib boraveradi. Mazkur tasniflar orqali shuni tushunish mumkinki, madaniyatlar xilma-xilligiga qaramasdan, ularni birlashtiruvchi o'xshashliklar ham mavjud. Masalan, barcha madaniyatlarda ham oziq-ovqat turlarini bildiruvchi o'ziga xos realiyalarning mavjudligi va hokazo. Biroq, bu tasniflashlar tarjimada yuzaga kelayotgan muammoni butunlay bartaraf qilish kuchiga ega emas.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tarjimada ekvivalentiga ega bo'lmagan madaniyatga xos realiyalar turlicha mezonlarga asosan tasniflanadi. S.I.Vlaxov va S.P.Florin ularni 1)til va madaniyatga daxldorligiga ko'ra, mahalliy va o'zlashtirilgan realiyalarga; 2) zamoniga ko'ra tarixiy va zamonaviy realiyalarga; 3) semantik maydoniga ko'ra geografik, etnografik va ijtimoiy-siyosiy realiyalar turlariga ajratishadi.

Semantik maydoniga ko'ra realiyalar yanada ko'proq tarmoqlarga ajratilib, tilshunoslar quyidagi guruh realiyalarining tasnifini taklif qilishadi:

– toponimlar va geografik atamalar: Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, to'qay; Москва, Санкт Петербур, тайга; New York, canyon, tsunami, Olympic Mountains;

ADABIYOTSHUNOSLIK

- antroponimlar, yoki kishi ismlari: Alpomish, To‘maris; Иван, Екатерина; Morpheus, Odysseus, Tartuffe;
- zoonimlar, yoki hayvon nomlari va fitonimlar - o‘simlik nomlari: tuvaloq, mayna, tuyatovon, yantoq; зубр, дрозд, нерпа, dingo, koala, kangaroo;
- ijtimoiy hayotga oid atamalar: mafkura, vazir, mahalla, oqsoqol, yanga, pochcha, otinoyi, kayvoni, rais, hokim; мэр, крестьянин, дворян, боярин; lord, baron, count, duke, conservators, liberals;
- harbiy atamalar: yuzboshi, mingboshi, qo‘mondon, yasovul; гвардеец, офицер, лейтенант, FBI, CIA, grenadier;
- ta‘limga oid atamalar: yetakchi, madrasa, ясли, завуч, завхоз, лицей, гимназия, alma mater, seminary, coed;
- udum va an‘analarga oid atamalar: chimildiq, sunnat to‘yi, challari; babyshower, gender party;
- orgonimlar, yoki bino va tashkilot nomlari: хонаqoh, маqbara, Красная площадь, Дума, Третьяковская галлерей, Эрмитаж, The White House; Capitol, Congress, WHO, Pentagon;
- tarixiy so‘zlar: foytun, tosh, botmon; лапоть, подорожная, дуэль, foot, yard, inch, morn, musket;
- maishiy hayotga oid so‘zlar: somsa, payola, qozon, chopon, to‘n; щи, борщ, pudding, muffin;
- asar nomlanishlari: Tanovar, lazgi, g‘azal, вальс, sonnet, chanson, ballad, Ulysses;
- Piter Nyumark milliy madaniyatga xos so‘zlarni besh guruhga bo‘lib tasniflashni tavsiya qiladi. Bular:
 1. Tabiatga oid so‘zlar (o‘simliklar va hayvonlar olami, iqlim kabilarni ko‘rsatuvchi so‘zlar).
 2. Moddiy madaniyat (oziq-ovqat, kiyim-kechak, binolar, shaharlar, transport vositalarini bildiruvchi so‘zlar).
 3. Ijtimoiy madaniyatga oid so‘zlar (kasb va ko‘ngilxushlikka oid so‘zlar).
 4. Tashkilotar, an‘analar, g‘oya, harakatlar nomlari (diniy, ijtimoiy, siyosiy, badiiy va boshqa).
 5. Imo-ishora va odatlar [5, 48].

Yuqorida keltirilgan tasniflardan shuni xulosa qilish mumkinki, madaniyatga oid tushunchalar bilan bir-biridan farqli bo‘lgan xalqlarni birlashtirib turuvchi hodisa ularning bir xil turdagi realiyalarga ega ekanliklari bilan ahamiyatlidir.

Tarjimonlar ikki til madaniyatini tarjima qilishda qiyinchiliklarni anglagan holda, tarjimada ekvivalentlik hodisasidan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Bunda tarjimonlar ikki madaniyatga xos semantik jihatdan o‘zaro o‘xshash hodisalarni bir-birining o‘rnida qo‘llash orqali tarjima qilishga urinishadi. Ekvivalentlik hodisasi asl nusxa tilida uchraydigan til birliklarini tarjima tili vazifadoshlari bilan almashtirish demakdir [4, 19]. Madaniyatlararo hodisa va tushunchalar xilmaxilligi mavjud ekan, asl nusxa matniga aynan o‘xshash tarjimini amalga oshirishning ham imkoni mavjud emas.

Ilmiy nashrlarda jo‘shqin muhokama etiladigan tarjima usullari tarjimonlarning bilim va kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi, inchunun, ularni taniy olish va taqqoslay, qiyoslay olish qobiliyati maqbul tarjimini amalga oshirish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Tilshunoslar realiyalar tarjimasida bir qancha yondashuvlarga asoslanadilar. Bu yondashuvlarning ayrimlari o‘zaro bir-birini to‘ldiradi. Taklif qilinayotgan tarjima usullarining asosiylari quyidagilarni tashkil qiladi:

Adaptatsiya, ya‘ni soddalashtirish usuli asl nusxa tilida realiya orqali berilayotgan ma‘lumot tarjima tilida mavjud bo‘lmaganda, tarjimada uni ekvivalenti sifatida qabul qilish mumkin bo‘lgan hodisa orqali ifodalash uchun qo‘llaniladi. O‘zlashtirish usuli so‘z yoki iborani tarjima qilmagan holda, asl nusxa tili ko‘rinishida qo‘llanilganda hosil bo‘ladi. Kalka, yoki tagma-tag tarjima usuli o‘zlashtirish usulining ko‘rinishi bo‘lib, bunda tarjimon so‘z yoki iborani tarjima tiliga o‘girganda uning so‘z tartibini o‘zgartirmagan holda tarjima qiladi.

Kompensatsiya, ya‘ni o‘rnini to‘ldirish usulida tarjimon ma‘lumot mazmunida yoki uslubiy bo‘yoqdorlikdagi yo‘qotishning o‘rnini to‘ldiruvchi vositadan foydalanadi. Odatda kompensatsiya

usuli shevaga oid birikmalar, kinoya, soʻz oʻyini kabi vositalar tarjimasini kamchiligi oʻrnini toʻldirish uchun qoʻllaniladi.

Qisqartirish/ reduksiya/ kondensatsiya/ tushirib qoldirish usuli odatda realiya asl nusxa matni maʼlumotida ahamiyatli oʻrin tutmaganda, yoki kitobxonni xayollarini chalgʻituvchi element sifatida koʻrilganda qoʻllaniladi. Bu usul, shuningdek, takrorlanishlarni oldini olish yoki tarjima tilida tabiiylikka erishish maqsadida ham foydalaniladi. Aksincha, tushuntirish/ kengaytirish/ amplifikatsiya/ diffuziya hodisasi asl nusxa matnida implisit tarzda berilgan maʼlumotni tarjima tilida kitobxonga tushunarli qilib yetkazish uchun ishlatiladi. Bunda tarjimon qoʻshimcha maʼlumot, tafsilot, izoh va ekpliksion parafrazalardan foydalanadi, shu tufayli asl nusxa matniga nisbatan tarjima matnida maʼlum tushunchani koʻproq soʻz va iboralar ishlatish orqali tushuntirib beradi.

Ekvivalentlik strategiyasi deganda ekvivalent matnni yaratishda bir xil vaziyatni uslubi va tuzilishiga koʻra farqlanuvchi metodlardan foydalanish tushuniladi. Bunda tarjimon ikki tilda ekvivalent deb tan olingan atama, tushuncha yoki iboralardan foydalanadi. Mazkur usul bir jihatdan bir xil vaziyatni turlicha ifodalaydigan adaptatsiya va modulyatsiya usullariga ham oʻxshaydi. Ekvivalent tarjima ayniqsa, turgʻun birikmalar va situation birikmalarini tarjima qilishda qoʻl keladi. Masalan, oʻzbek tilida “Xudo koʻtarsin seni” iborasi biror kimsaga nisbatan nafratni ifodalab, unga oʻlim tilab aytiladigan qarqʻanish iborasi shartli ravishda ruscha “Чёрт побери тебя” va ingliz tilida “Go to the hell” iboralari bilan tarjima qilinishi mumkin. Mazkur holatda tarjimon kitobxonga qarqʻanishning mazmunini va negativ konnotatsiyasini yetkaza oladi. Shuningdek, oʻzbek tilida vafot etgan kishi haqida gapirilganda, ismiga qoʻshib ishlatiladigan “(xudo) rahmatli” iborasini rus tilida “покойный”, ingliz tilida “last” ekvivalentlari orqali ifodalash adekvat tarjimaga erishishga yaqindan yordam beradi.

Modulyatsiya usulida tarjimon asl nusxa matnida ishlatilgan iborani tarjima tilida mavjud boʻlgan boshqa bir ibora bilan almashtiradi va ekvivalent tarjimadan farqli ravishda tarjimon muallif keltirgan gʻoya, fikr, diqqat va manzarani ham oʻzgartiradi.

Umumiyashtirish va xususiylashtirish (konkretizatsiya) usullari asl nusxa matnida berilgan soʻz yoki iborani kengroq (umumiyroq) yoki torroq (xususiyoq) maʼnoni ifodalagan soʻz yoki ibora bilan tarjima qilishni nazarda tutadi. Tarjimon umumiyashtirish va xususiylashtirish usullaridan maʼno chalkashliklariga yoʻl qoʻymaslik, takrorlanishlar va boshqa uslubiy kamchiliklarni oldini olish maqsadida foydalanadi.

Soʻzma-soʻz yoki lugʻaviy tarjima deganda, asl nusxa tilida mavjud soʻz yoki iborani oʻzgartirmasdan, stilistik va sintaktik xususiyatlarini aslicha qoldirish orqali tarjima qilish tushuniladi. 1980-yil Yu.I.Surovsev tomonidan rus tiliga, 2019-yil I.Toʻxtasinov, U.Yoʻldoshev va A.Hamidovlar tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan oʻzbek yozuvchisi Pirmqul Qodirovning “Yulduzli tunlar (Bobur)” tarixiy romani tarjimon ishini qiyinlashtiruvchi realiyalar va tarixiy soʻzlarga boy. Quyida oʻzbek xalqining madaniyati va turmush tarziga oid hodisalarni mahorat bilan boshqa til vakillariga yetkazishga harakat qilgan tarjimonlar ishidan namunalarni tahlil qilgan holda tarjimonlar tomonidan qoʻllanilgan tarjima usullarini koʻrib chiqishni maqsad qildik.

Shuni aytish joizki, asarda tanlangan realiyalar tarjimasini tahlilida, tarjimonlar, asosan, ekpliksatsiya, reduksiya, umumiyashtirish, oʻzlashtirish, leksik-semantik almashtirish usullaridan unumli foydalangan. Tarjima matning hajmini oshirib yubormaslik maqsadida oʻzlashgan soʻzlar izohi, asosan, matndan tashqarida, havolalarda berilgan.

Quyidagi namunalarda oziq-ovqat nomiga oid realiya tarjimasida oʻzlashtirish va ekpliksatsiya usulidan foydalanilgan, izoh matn ostida keltirilgan, biroq asl nusxa matnida keltirilgan “qatiqli osh” va tarjimada almashtirilgan “mastava” realiyasining ikkalasi ham oʻzbek madaniyatiga oid boʻlib, tayyorlanish usuli va tarkibiga koʻra bir-biridan farq qiladi. Biroq shu oʻrinda mazmundagi yoʻqotishni kompensatsiya qilish maqsadida “mastava” soʻziga “with the sour milk”/ “заправленная кислым молоком” aniqlovchi birikmasi qoʻshilgan.

Non yeb, bir kosadan **qatiqli osh** ichganlaridan keyin Tohir Andijonga ketish haqidagi gapning uchini chiqarishga chogʻlandi. [12, 7]

Тахир сидел за трапезой вместе с родителями. Пахло горячими лепешками, дыней. Вкусен был хлеб, вкусна была **Мастава**, заправленная кислым молоком. Тахир все медлил с началом разговора о поездке в Андижан. [15, 8]

ADABIYOTSHUNOSLIK

There was a smell of hot cookies and melon. Bread was tasty and **mastava** (Mastava – the name of the rice soup with vegetables) poured with the sour milk was delicious. Takhir was slow in beginning a conversation about the departure for Andijan. [11, 8]

Quyida o'zlashtirish va eksplikatsiya usullari yoramida kiyim turini bildiruvchi "chakmon" realiyasining rus va ingliz tillariga ag'darilishidan namuna keltiramiz. Rus tilida tarjimon kontekstdan "чекмень" o'zlashma so'zi kiyim turini bildirishi ma'lum bo'lganligi sababli, unga izoh keltirishni lozim topmagan. Ingliz tilida berilgan tarjimada esa, mutarjimlar qo'shimcha ravishda matn ostida o'zlashma so'zga izoh keltirgan va uni ingliz kitobxoniga tanishroq bo'lgan boshqa chet til realiya "caftan" orqali tushuntirishga urinishgan.

Boshiga otasining qora jun **chakmon**ini yopinib chiqqan ekan. Yomg'irda ho'l bo'lib og'irlashgan **chakmon** uning nozik bo'yniga og'irlik qildi. [12, 4]

Выбежав из дому на встречу с Тахиром, девушка наскоро накинула поверх головы отцовский черный шерстяной **чекмень**. Пропитанный дождевой влагой, он стал теперь тяжелым и громоздким. [15, 5]

While running out from the house for the meeting with Takhir, the girl had thrown over her head her father's black woolen **chakmon**. Having been soaked with the rain it became very heavy and bulky. (Chakmon – caftan-type outerwear) [11, 5]

Quyida esa, ingliz tilida leksik-semantik almashtirish usuli muvaffaqiyatli qo'llanilgan tarjimadan parcha keltiramiz. Masalan, yashil **nimchasi** o'n yetti yoshlik qizlardagina bo'ladigan tolma belidan quchib, qattiq ko'kraklarini mahkam chirmab turar edi [12, 4].

Зеленая **безрукавка** плотно облегла гибкую, тонкую талию семнадцатилетней Роби, ее тугие груди. [15, 6]

The green **sleeveless jacket** outlined the flexible slender waist and tight bosom of seventeen-year old Robiya [11, 6].

Quyida keltirilgan misolda tarjimonlar o'zbek tilida uchraydigan, muammolarini hal qilishda hech kimdan najot kutish kerakmasligini bildiruvchi "o'zing uchun o'l yetim" iborasi rus va ingliz tillariga kalkalash va so'zma-so'z tarjima usuli bilan o'giranlar.

Tohir ko'prikdan beriroqda — qorayib turgan katta bir daraxtning tagida hamrohlarini to'xtatdi:

— O'zlaringdan qolar gap yo'q. Beklar bilan navkarlar bizni yog'iyning oyog'i ostiga tashlab ketdi. «**O'zing uchun o'l yetim**», degan gap bor. Xudo kushoyishi korimizni bersa, hammamiz uy ichimiz bilan bir balodan xalos bo'lamiz. Mabodo, ishimiz o'ngidan kelma-sa... Bitta-yarimtamiz qo'lga tushadigan bo'lsak.... [12, 60]

Тахир остановил своих напарников возле большого дерева, росшего перед мостом.

— Нам нечего терять, братцы. Беки и нукеры бросили нас под копыта вражеских коней. Опять повторяю: «**Сам за себя умри, сирота**», есть такая поговорка. А коль нам повезет, то избавимся от большой беды вместе со своими родными: новый мост построить не шутка через такую реку, как наш Куvasай... А коли случайно не повезет... молчать надо. Всем, несмотря ни на что. [15, 52]

Takhir stopped his companions at the high tree, which was growing before the bridge. "We have nothing to lose, brothers. Beys and soldiers left us to face the hooves of enemies' horses. I repeat again: "**die for your own sake, orphan**", there is such a saying. But in case we are lucky, our relatives and we will get rid of a great trouble: It's very difficult to build a bridge over such a wide river like Kuvasay... But if we accidentally have the bad luck... we should keep silent. No matter what will happen we all should keep silent." [11, 52]

Mazkur parchani o'girishda ekvivalentlik, adaptatsiya yoki modulyatsiya usullarini qo'llash ham mumkin edi. Bunda ingliz tilida "muammoni hal qilishga kirishish" ma'nosida qo'llaniladigan "to take the bull by the horns" (rus tilida "братъ быка за pora") idiomasiidan foydalanish mumkin bo'lardi.

Quyida keltirilgan misolda esa, asl nusxa matnida muallif makkajo'xori unidan tayyorlangan non turi zog'orani eslatish orqali aslzoda ayyollarning naqadar qiyin ahvolda qolganliklarini ta'kidlab o'tmoqchi, chunki zog'ora noni bug'doy uniga qurbi yetmaydigan oddiy, avom halq taomi edi.

— Ozib ketibdilar, — deb davom etdi No‘yon. — Oshliqdan juda qiynalmishlar. «Qahatchilik bo‘lib, pulga oshliq topilmay qoldi», deyдилar. «Zog‘ora nonga ham zor» bo‘ldik, deb yig‘lab yubordilar. O‘tin-cho‘plari ham yo‘q ekan. «Sovuqda diydirab o‘tiribmiz» deyдилar. [12, 115]

— Истошчал-а-а-ла, — протянул Нуян. — Голодали они сильно, давно не видели хлеба. «Муки невозможно было найти и за золото», — так сказала ханум. И плакала, плакала. Ели, говорит, **лепешки из отрубей**. И дров у них нет, дрожат от холода. [15, 68]

— “She’s exha-a-a-usted”, — Nuayan prolonged. — “They starved terribly, haven’t eaten bread for a long time. «It was impossible to buy flour even for gold», - hanum told me. And she cried and cried. They ate **flat bread made of bran**. They don’t have firewood, too, shiver with cold.” [11, 97]

Rus tarjimoni zog‘ora nonga ekvivalent tanlashga harakat qilib, rus millatida turli don bo‘laklari qo‘shin pishiriluvchi non turini (“лепешки из отрубей”) ishlatgan. ingliz tiliga qilingan tarjimada esa arpa unidan tayyorlangan non turi (Bran bread) tanlangan. ingliz xalqi tarixida ham arpa unidan tayyorlangan non xalqning kambag‘al vakillari tomonidan iste‘mol qilingan. Shu sababli, tarjimonlar tomonidan o‘zbek realiyasi hisoblanmish “zog‘ora non” tarjimasi uchun tanlangan tushunchalar muvaffaqiyatli ishlatilgan deb xulosa qilishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki, realiyalar tarjimasi usullari asosida yotuvchi tamoyillar shundan iboratki, realiyalar tarjimasi uchun umumiy qoidalarni o‘rnatish mumkin emas, aksincha har bir usulning alohida holatlarda imkoniyatlari va kamchiliklarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Catford, J. C. (1965). *A Linguistic Theory of Translation*. Oxford: Oxford University Press
2. Denti, O. (2012) *Cross-cultural Representations in Tourism Discourse: The Case of the Island of Sardinia* / O. Denti. – Aipsa. – 255 p.
3. Macedo, A.G., Pereira, M.E. (2006). *Identity and Cultural Translation: Writing Across the Borders of Englishness: Women’s Writing in English in a European Context* / A.G. Macedo, M.E. Pereira. – Peter Lang. – 282 p.
4. Maitland, S. (2017). *What Is Cultural Translation?* / S. Maitland. – Bloomsbury Publishing. – 192 p.
5. Malblanc, Alfred. (2019). *Stylistique comparée du français et de l’allemand*. – Paris: Didier
6. Newmark, P. *More Paragraphs on Translation* / P. Newmark. (1998). - *Multilingual Matters*. – 226 p.
7. Ochilova, N. U. (2021) *Analysis of the translation of anthroponyms in childrens literature (on the example of English and Uzbek folk tales)* // *Theoretical & Applied Science*. №. 2. – С. 155-157.
8. Ochilova, N. U. (2018). *Culture is the bridges that lead country to another nationality* // *International scientific review of the problems of pedagogy and psychology*. – С. 93-95.
9. Pedersen, Jan (2011) *Subtitling Norms for Television: An Exploration Focusing on Extralinguistic Cultural References*, Amsterdam: John Benjamins.
10. Vermeer, Hans. (2020). “Translation Theory and Linguistics”, in P. Roinila, R. Orfanos and Sonja Tirkkonen-Condit (eds) *Näkökohtia kääntämisen tutkimuksesta*, Joensuu: University of Joensuu, 1–10
11. Qodirov, P. (2019). *Starry nights: novel/ Bobur*. Translators: I.M.Tukhtasinov, U.R.Yoldoshev, A.A.Khamidov. – Samarkand: SamSIFL.-446p.
12. Qodirov, P. (2018). *Yulduzli tunlar: roman*. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari. – B.560
13. Берков, В.П. (2011). *Норвежская лексикология*, – Санкт Петербург: Филологический факультет СПбГУ.
14. Влахов, С.Н., Флорин, С.П. (2012) *Непереводимое в переводе* /С.Н.Влахов, С.П. Флорин. – Р. Валент. – 406 с.
15. Кодиров, П. (1983). *Звёздные ночи*. перевод: Юрий Суворцев. – М: Сов.писатель,– 486 с.